

“IZHOR UL HAQ” JURNALINING MAMLAKAT MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRI

Qudratova Nilufar Shuhrat qizi

Annotasiya: Maqolada XX asr boshlarida Turkistonda islom ma'rifatparvarligini o'rganishga oid milliy matbuot manbalari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, 1918 yilda nashr etilgan “Izhor ul-haq” jurnalida chop etilgan ayrim maqolalarning tabdili ham o'rin olgan. “Izhor ul-haq” jurnalining Turkiston ijtimoiy-ma'rifiy hayotida tutgan o'ziga xos o'rni yoritilgan. Maqolalar asosida jadidlarning ma'rifiy maqdadlari va fuqaxo jamiyatning nashr afkari bo'lgan “Izhor ul-haq” jurnalining maqsadlarining mushtarakligi tahlil qilinib, ma'rifat tarqatishdagi faoliyati manbalar asosida qamrab olingan.

Kilit so'zlar: “Izhor ul-haq”, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, muftiy Sadriddinxo'ja Sharifxo'ja, Miyon Buzruk, Tangriqul Maqsudiy, Shokirjon Rahimiy, Laziz Azizzoda, jadid, “fuqaho jamiyati”

XX asr boshlaridagi jahonda sodir bo'layotgan turli siyosiy voqyealar; Rossiya, Turkiya va Eron inqiloblaridan tashqari, Qrim va Volgabo'yi tatarlarining matbuoti Turkiston ziyolilarini mustaqillik uchun harakatini yuzaga kelishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ular o'zlarining matbuotdagi chiqishlari orqali ommani birdamlikka, uyushqoqlikka she'r va maqolalari bilan targ'ib qildilar. Masalan, Behbudiy 1901- yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Tujjor” singari mahalliy hamda “Tarjimon”, “Vaqt” va “Sho'ro” singari qardosh xalqlarning gazeta va jurnallarida 200 dan ziyod maqolalarini e'lon qilganligini bilamiz. Shuningdek, Milliy marifatchilik g'oyalari bilan sug'orilgan jadid nashrlari deb tarixda nom qoldirgan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Tujjor” gazetalarida bosilgan maqolalar ham fikrimizning dalilidir.

Mazkur davrda ma'rifat, ilm-fan maslalarida mahalliy millat vakillari jahon hamjamiyatidan orqada qolgan edi. Bu davrda Angliya va Turkiya davlatlari Rossiya inqiloblaridan foydalanib Markaziy Osiyoga ko'z tikib turgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bolsheviklar hukumati ham “shirin lakomka”ni qo'ldan chiqarmaslikka harakat qilayotgan edi. Shunday tahlilali jarayonlarda missionerlik harakatlari ham o'z manfaatlarini ilgari surishga harakatlari avjida edi. Natijada milliy an'analar, urf-odatlar ayniqsa muqaddas islom diniy an'ana va qoidalari siqib chiqarilmoqda edi. Bunday jarayonlarni oldini olish maqsadida jadidlar barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanishga, shu jumladan davriy matbuot sahifalaridan foydalanishga harakat qiladilar. Ular o'z chiqishlarida milliy ozodlik g'oyalarini ilgariga surish bilan bir qatorda diniy-ma'rifatni targ'ib qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratishdi.

“Izhor ul-haq” jurnali “haqni izhori va haqiqatni kashf etub” degan tamoyilga tayanib faoliyat yuritdi. Bu majallada o'sha davrdagi insonlarning ijtimoiy hayotlari va undagi muammolarning sabablari hurofot va bid'at, ilmsizlik ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, insonlarga birovning boshiga tushgan tashvishdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmasliklari ta'kidlanadi. Masalan; Mullo Sadriddin xo'ja muftining “Daf'i tahlaka”

maqolasida “Ovrupo muhoribasi boshlanganiga to‘rt yil bo‘lgan bo‘lsa, yildan yilga bechora xaloyiq, xususan Turkiston mamlakatida mutavatan islom bolalari faqir va zarurat loyiga botib turibdurlar. Ochlik va qahat balosidin har kun necha ming va balki milyunlab g‘arib va g‘urabolar ko‘cha bako‘cha kezib shahardin shaharga yurib “oh non” deyub gadolik qilmakdadurlar. Ochlik va sovuqdan bir parcha nonga zor bo‘lib har kun va har zamon necha ming muslim va muslimalar sabi va sabiyalar nihoyatda foje’ bir ahvolda bu dunyoga vido’ qilmakdadurlar ...

Har bir mahalla imomi va mas’ul rahbarlar o‘z qo‘llarida bo‘lgan fuqarolarning ahvoliga e’tibor berishlari, och va yalang‘ochlarga yordam qo‘lini cho‘zishlari kerakligi haqida so‘z yuritadi. Ular mahalla boylariga shunday taklif qilsinlarki, faqirlarni o‘z dasturxonlariga chorlasinlar yoki hech bo‘lmaganda ma’naviy jihatdan yordam berish yo‘lini izlasinlar. Agar mutasaddi amaldorlar bu ishga befarq bo‘lishsa, Alloh taolo oldida javob berishga majbur bo‘ladilar. Shundan so‘ng, muallif “Izhori haqiqat va irshod” nomli maqolasida shunday deydi: Muhabbatning ziddi — adovat, ya’ni dushmanlikdir. Dushmanlik – insoniyat uchun eng katta falokatdir. U qayerga kirsas, o‘sha joyni buzmay qo‘ymaydi. Ayniqsa, islom olamiga kirsas, u tezda birlik devorini buzadi, yuraklarda sovuqlik uyg‘otadi. Aql ham, shariat ham tasdiqlaydiki, barcha yomon xulqlarning ildizi adovatdadir. Hasad, g‘iybat, bo‘hton, chaqimchilik kabi illatlar dushmanlik ildizidan o‘sib chiqadi. Shuning uchun, shariat Qur’oni karim va hadisi sharif orqali bizni muhabbat, sadoqat, muruvvat, ehson, yaxshilik, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash, nasihat, xayrixohlik, birodarlik va yarashtirish kabi fazilatlariga odatlanishga buyuradi. Agar musulmonlar Asri saodat (ya’ni Payg‘ambar davri) va unga yaqin asrlardagi kabi shariatni o‘rganib, unga amal qilganlarida edi, hech qachon bu ummat shunday falokat va vayronalikalarga uchramas edi. Ular begona millatlarning zulm zanjiri ostida asir va xor bo‘lmasdilar. Lekin bugungi zamonda ayrim kishilar g‘iybat, bo‘hton, chaqimchilik kabi yomon ishlardan o‘zlarini tiyishmayapti. Birovni yomon nom bilan atash, tahqirlash ularning orasida odat tusiga kirgan. Agar bir odam shariat hukmlarini mukammal bilsa ham, lekin o‘zi ularga amal qilmasa, uni “haj qildi” deb bo‘ladimi? Yoki zakotning hukmini mukammal bilsa-yu, ammo o‘zi zakot bermasa, faqirlarning muhtojligini bartaraf etgan bo‘ladimi?”

1918-yilda Toshkentda “Fuqaho jamiyati” tomonidan nashr etilgan “Izhor ul-haq” jurnali Turkiston tarixida xalqning diniy-ma’rifiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishning muhim manbalaridan biri bo‘ldi. Ushbu nashr birinchi jahon urushi, iqtisodiy inqirozlar davrida musulmon ziyolilarining xalqni ijtimoiy, axloqiy va milliy uyg‘otishga qaratilgan harakatining intellektual ifodasi bo‘lib xizmat qilgan.

“Izhor ul-haq” – diniy gazeta emas, balki shariat, ma’rifat va jamiyat islohotini birlashtirgan jurnaldir. Unda muftiy Sadriddinxo‘ja Sharifxo‘ja, Miyon Buzruk, Laziz Azizzoda, Shokirjon Rahimiy, Tangriqul Maqsudiy kabi jadid ruhidagi ulamolar jamiyatdagi:

- ☐ g‘aflat, adovat, jaholat va bo‘htonga qarshi;
- ☐ ilm, birlik, muhabbat va silai rahm (birodarlik) tarafdori sifatida chiqishlar qilganlar.

Maqolalarda shariat faqat nazariya emas, amal, ixlos va niyat bilan uyg'un bo'lgan hayotiy yo'l sifatida talqin qilinadi. Mualliflar o'z maqolalarida limning manfaatlari haqida yozadilar. Ilim yolg'izlikda oshna, g'ariblikda hamroh, hafalikda yo'l ko'rsatuvchi, dushmanga qarshi qurol ekanligini yoritadilar. u qarash Imom G'azzoliy va Ahmad Donish singari islom mutafakkirlarining "ilm – amal – ixlos" g'oyasining davomi edi..

Jurnal 1918-yil – Turkiston Muxtoriyati qulatilgan, bolsheviklar hukmronligi boshlangan bir paytda chiqqan. Shu bois "Izhor ul-haq":

- ☐ Turkiston musulmonlarini ittifoq va uyg'unlikka chaqirgan;
- ☐ Bolshevik g'oyalarining dinga zidligini tanqid qilgan;
- ☐ "Hurriyat"ni axloqiy va diniy ozodlik ma'nosida tushuntirgan.

Bu jihatdan u jadid matbuotining ilgariroq boshlangan "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Oyna" singari nashrlaridan keyingi ma'rifiy davomiy bosqich edi.

"Izhor ul-haq" maqolalarida ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi:

1. Shariatni amalda tiklash — jamiyatni axloqiy poklanish orqali isloh qilish.

2. Ilm va e'tiqodni uyg'unlashtirish — jaholat zulmatini ilm nuri bilan yoritish. Mualliflar dinni faqat marosim emas, ijtimoiy adolat va taraqqiyotning ma'naviy asosi sifatida talqin etganlar. Bu yondashuv diniy islohot va milliy uyg'onishning uyg'un modelini yaratgan. "Izhor ul-haq" o'z davri uchun:

☐ kaligrafik bezak, arab naqshlar va nasx–suls yozuvi orqali islomiy go'zallik estetikasini ifodalagan;

☐ mazmun jihatidan Turkiston uyg'onish davri matbuotining ma'naviy tipini yaratgan;

☐ shakl jihatidan esa an'anaviy madrasaviy yozuvdan zamonaviy jurnalistik shaklga o'tishdagi o'tish bosqichi bo'lgan.

"Izhor ul-haq" – ilmsiz e'tiqod va amalsiz ilmning befoydaligini yoritgan;

- ☐ musulmonlarni ijtimoiy birdamlik va vatanparvarlikka chorlagan;
- ☐ islomni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda tushuntirgan;
- ☐ matbuot orqali ma'rifatni millat uyg'onishining asosi sifatida targ'ib qilgan.

Shu sababli "Izhor ul-haq" o'z davrida ilm, din va millat birligi sifatida milliy tarixshunoslik uchun muhim manbalaridan biridir.

"Izhor ul-haq" jaridasining "Daf-i tahallul" bobida muallif musulmonlar o'rtasida tarqalgan johillik, nafs va dunyoviy manfaat tuyg'usi orqali kelib chiqqan "ruhiy halokat"ni tahlil qiladi. U inson qalbidagi pok niyat, tavba va Allohga muhabbatni haqiqiy najot deb hisoblaydi. Alloh doim odam farzandini ogoh qilurkim, u dunyoda faqat imtihondadir. Bu dunyo halovati va mansablari o'tkinchidir. Qur'onda marhamat qilinur: "Har jon o'limni tatig'aydir." (Oli Imron, 185-oyat) Bu dunyo hayoti faqat sinov va foni ne'matdur.

Kimki uni abadiy sanasa, u albatta zalolatdadur. Inson qalbidagi muhabbat faqat Alloh uchun bo'lmog'i lozim. Dunyoga muhabbat — ilohiy muhabbatni zaif qilur. Har bir kishi Allohni zikr qilmog'i va dunyodan fano bo'lmog'i lozim. Bu haqda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) dedilar: "Bu dunyo mo'min uchun qamoq, kofir uchun jannatdur." Demak, mo'min kishi dunyo qiyinchiliklariga sabr etar va Alloh roziligini izlar.

Bu sabrning natijasi jannat bo'lur.

Shuning uchun har bir musulmon qalbida tavakkul, tavba va muhabbatni mustahkam qilmog‘i lozim. Dunyoviy hirs, mansab va nafs — insonni halokatga yetkazur. Alloh taolo marhamat qilur:

“Ey inson, sen Robbing sari mehnat qilib borursen, so‘ngra U zotga yetishursen.” (Inshiqoq, 6-oyat) Izohli tarjima (qisqacha ma‘nosi):

Muallif bu sahifada inson hayotini imtihon deb bilishga chaqirgan. U dunyoviy nafs va hirsni “ruhning zanjiri” deb ataydi, hamda haqiqiy erkinlik faqat Alloh muhabbatida ekanini ta’kidlaydi. Har bir mo‘minning burchi — sabr, tavakkul va tavba bilan hayot kechirish. Shundagina inson qalbi haqiqiy poklikka va najotga yetadi .

Maqolada muallif musulmonlar o‘rtasida tarqalgan johillik, nafs va dunyoviy manfaat tuyg‘usi orqali kelib chiqqan “ruhiy halokat” ekanligini ochib beradi. Shu bilan bunday halokatdan inson qalbidagi pok niyati, tavbasi va Allohga muhabbati, halol mehnati va birovning haqidan qo‘rqish orqali najot topishishi mumkinligini qayd etadi.

Xulosa: XX asr boshlarida butun dunyoda, xususan Podsho Rossiyasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar — Rossiya inqiloblari (1905, 1917), Usmonli (Turkiya) islohotlari, Eron konstitutsiyaviy inqilobi va Qrim, Volgabo‘yi tatarlarining ma‘rifiy harakatlari Turkiston ziyolilarining tafakkurini tubdan o‘zgartirdi. Bu jarayonlar Turkistonda milliy o‘zlikni anglash, mustaqillikka intilish va islomiy-ma‘rifiy uyg‘onishni tezlashtirdi:

Turkiston jadid ziyolilari, jumladan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Sadriddinxo‘ja muftiy, matbuotni millatni uyg‘otuvchi vosita deb bildilar. Ular gazeta va jurnallar orqali xalqni birlikka, ilmga va milliy g‘ururga da‘vat etdilar.

Behbudiy 1901-yildan boshlab “Taraqqiy”, “Tujjor”, “Xurshid”, “Oyna” kabi nashrlar, shuningdek “Tarjimon” (Ismoil G‘aspirali) sahifalarida maqolalar e‘lon qilib, Turkiston ma‘rifatparvarlik maktabini shakllantirdi.

“Izhor ul-haq” jurnali Turkiston ijtimoiy tafakkurining mahsuli sifatida jadid harakatining diniy-ma‘rifiy qanotiga aylandi

Toshkentda “Fuqaho jamiyati”ning nashr afkori sifatida “Izhor ul-haq” jaridasi – “ilm, din va jamiyatni uyg‘unlashtirish orqasida xalqni najotga eltish” tamoyiliga asoslangan diniy-ma‘rifiy nashr edi.

“Izhor ul-haq” jurnali milliy mustaqillik, ma‘naviy uyg‘onish va diniy axloqiy g‘oyalarini birlashtirib, xalqni milliy ong va birlik yo‘lida tarbiyalashni maqsad qildi.

Muftiy Sadriddinxo‘ja Sharifxo‘ja, Miyon Buzruk, Tangriqul Maqsudiy, Shokirjon Rahimiy, Laziz Azizzoda singari ulamolar mazkur jurnal orqali o‘z davrining ijtimoiy illatlarini – g‘iybat, jaholat, adovat, riyo, nodonlikni tanqid qildilar.

“Daf‘i tahlika” maqolasida mufti Sadriddinxo‘ja xalqni urush va ochlik falokatidan qutqarish uchun birlik, xayriya va ijtimoiy mas‘uliyatga chaqiradi.

Bu maqola diniy axloqni ijtimoiy hayot bilan bog‘lashga urinadi: har bir imom, oqsoqol, boy va fuqaro Alloh oldida yordam burchini ado etishi kerak.

“Izhori haqiqat va irshod” maqolasi esa muhabbat va adovat o‘rtasidagi muqoyasa orqali islom falsafasining axloqiy mohiyatini yoritadi: Dushmanlik — jamiyatni buzuvchi kuch, muhabbat esa uning birlashtiruvchi rishtasi ekanligini ta’kidlaydi. Muallif Qur‘on va hadis asosida silai rahm, do‘stlik, muruvvat, nasihat, xayrixohlik kabi fazilatlarni targ‘ib

etib, ilm va amalning birligi g‘oyasini ilgari suradi. Bu qarashlar Imom G‘azzoliy, Ahmad Donish va Alisher Navoiy singari mutafakkirlarning “ilm be’amal — befoyda” tamoyilini ilgari suradi. Shu bilan, diniy-ma’rifiy tafakkurda ixlos, tavakkul va amaliy imon tushunchalarini markazga qo‘yadi.

Jurnal sahifalarida e’lon qilingan maqolalarni tahlil qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- “Izhor ul-haq” Turkiston jadidchilik harakati tarixida o‘z davrida kelib chiqqan turli diniy va g‘oyaviy muammolarga diniy-ma’rifiy javob sifatida yuzaga keldi.

- Islom dini ijtimoiy adolat, axloqiy tarbiya va ma’rifat manbai ekanligini ko‘rsatib bergan;

Ilmni taraqqiyot vositasi, shariatni esa axloqiy mezon sifatida talqin etgan;

Matbuot orqali xalq ongini, din niqobi ostidagi bid’atlarni isloh qilishni maqsad qilgan;

Ijtimoiy birdamlik, birodarlik va vatanparvarlikni imon bilan bog‘lab tushuntirgan.

Demak, “Izhor ul-haq” — diniy nashrdan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lgan islomiy-modernistik ijtimoiy jarida deyish mumkin.

U “ma’rifat = najot ilimda” formulasini shakllantirib, XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-falsafiy uyg‘onishining muhim bo‘g‘inidan biri bo‘ldi.

“Izhor ul-haq” (1918) jurnali — Turkiston jadidchilik harakatining diniy-ma’rifiy qanotini tashkil etgan nashr bo‘lib, uning mazmuni, maqsadi va metodlari jadid g‘oyalarining amaliy ifodasi sifatida shakllangan.

Jadidchilikning mohiyati va “Izhor ul-haq”dagi ifodasi	
Jadidchilik	“Izhor ul-haq”
Jadidchilik — bu XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan ma’rifat, islohot va milliy uyg‘onish harakatidir . Uning asosiy maqsadi:	“Izhor ul-haq” aynan shu vazifalarni o‘z zimmasiga oldi:
– musulmon jamiyatini jaholatdan, mustamlakachilik zulmidan xalos etish;	– ilmni din bilan, dinni esa ma’rifat bilan bog‘ladi;
– diniy islohot orqali ma’naviy va ilmiy yuksalishni ta’minlash;	– din niqobi ostidagi xurofotga qarshi kurashadi:
– xalq ongini milliy, siyosiy va ijtimoiy jihatdan uyg‘otish edi.	– Turkiston musulmonlarini birlik, ittifoq va o‘zlikni anglash sari chorladi.
Ilm va din birligi — jadidchilikning asosiy g‘oyasi	
Jadidlar “ilm — najot, jaholat — halokat” tamoyiliga amal qilganlar.	“Izhor ul-haq” maqolalarida “ilm-ma’rifat = najot ilimda” formulasini shakllantiradi.
Matbuot orqali xalqni uyg‘otish g‘oyasi	
Jadidlar matbuotni har vaqt g‘aflat uyqusidan uyg‘otuvchi millat ongining ochqichi ekanligini namoyon etadi.	“Izhor ul-haq” ham ayni shu yo‘ldan bordi: Jurnal o‘zini “haqni izhor etuvchi va haqiqatni kashf etuvchi” minbar deb atadi.

Ijtimoiy adolat va milliy uygʻonish yoʻlida diniy islohot	
Jadidchilikda din — taraqqiyotga toʻsiq emas, balki, harakatining asosiy maqsadi dunyoviy va diniy taʼlimni birlashtirish edi.	“Izhor ul-haq” Ilm va eʼtiqodni uygʻunlashtirish – jaholatni ilm nuri bilan yoritish.
Milliy birlik va vatanparvarlik	
Jadidlar uchun “millat” tushunchasi diniy birdamlik bilan chambarchas bogʻliq edi.	“Izhor ul-haq” musulmonlarni oʻzaro adovatdan voz kechishga, Turkiston Muxtoriyati gʻoyasini qoʻllab-quvvatlashga chaqiradi.
Jadidlar «Tilda, fikrda, ishda birlik!» degan shiorga amal qilishgan.	“Izhor ul-haq” maqolalarida ilm, amal va tavakkul birligi masalasi koʻtariladi.

Mazkur jadvalda bergan qiyosiy tahlillarimizni mamlakatimiz rahbarining “Tarixdan maʼlum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uygʻoq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, sanʼat namoyandalari, maʼnaviyat va maʼrifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz oʻz taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi gʻarb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur” degan soʻzlari bilan hulosa qilsak boʻladi.

“Izhor ul-haq” maqolalari, xususan, “Dafʼi tahalluka” (“Halokatni daf etish”) va “Ibrat” boblari, muallif Sadriddinxoʻja muftiy Sharifxoʻja eshon oʻgʻlining fikrlari bilan bir qatorda, jadid tafakkurining ilmiy-falsafiy yoʻnalishini belgilab berdi.

Asarda ilgari surilgan “Ilm – amal bilan, amal – ixlos bilan, ixlos esa niyat bilan boʻladi” tamoyili Gʻazzoliy, Ahmad Donish va Buxoriy anʼanalarini davom ettirib, diniy bilimni faqat nazariya emas, ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi.

Muallif ilmni “ruhning nuri”, adolatni “olam tartibi”, taqvoni “inson kamoloti” deb izohlaydi.

Bu falsafiy qatlam shariatni tor diniy qoidalar majmuasi sifatida emas, insonni, jamiyatni va axloqni isloh etuvchi tirik tizim sifatida talqin etadi.

Shunday yondashuv jadidlar ilgari surgan “din – maʼrifat, maʼrifat – taraqqiyot” zanjirining gʻoyaviy tayanchi boʻldi.

Muallif “Dafʼi tahalluka” bobida urush, ocharchilik va iqtisodiy inqiroz sharoitida ijtimoiy birdamlik va yordamning zarurligini taʼkidlaydi.

U mahalla imomlari, oqsoqollar, boy-badavlat kishilarni xalq bilan birdam boʻlishga, rahm-shafqat va ijtimoiy adolat yoʻlini tutishga daʼvat etadi.

Bu – diniy nasihat emas, ijtimoiy ongni uygʻotuvchi chaqiriqdir.

Muallif “Alloh oldida javobgarlik”ni faqat ibodat doirasida emas, ijtimoiy masʼuliyat mezonini sifatida tushuntiradi. Bu bilan u islomni nafaqat ruhiy najot, balki jamiyatning maʼnaviy tayanchi sifatida talqin qiladi.

“Izhor ul-haq” jurnali: Jadidchilikning diniy-maʼrifiy yoʻnalishini shakllantirgan, shariatni axloqiy-ijtimoiy islohot vositasi sifatida talqin qilgan, Ilm, maʼrifat va

vatanparvarlikni bir butun milliy g‘oyaga aylantirgan, matbuot orqali Turkiston uyg‘onishining intellektual platformasi bo‘lgan. Demak, “Izhor ul-haq” jadidchilik harakatining eng sof, iymoniy va ma’naviy ko‘rinishi bo‘lib, u: “Ilm bilan dinni, din bilan jamiyatni, jamiyat bilan insonni uyg‘otish” g‘oyasini amalda ro‘yobga chiqargan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, “Izhor ul-haq” jurnalini jadidchilik manbalari qatoriga kiritsa bo‘ladi. Jurnal faqat diniy emas, balki siyosiy-ma’rifiy tafakkur tarixining muhim halqasidir. Uning maqolalari asosida XX asr boshlaridagi mamlakatimiz musulmon xalqlarining ijtimoiy tarixini o‘zgarishda muhim bir tarixiy manba sifatida qarash e’tirof etish mumkin. Shu jumladan, “Jadid matbuotida diniy islohot konsepsiyasi” mavzusida maxsus tadqiqot yo‘nalishi yaratish ham maqsadga muvoffiq bo‘ladi.

Jurnalning barcha sonlarini ilmiy sharh va izohlar bilan nashr etilish, O‘zbekiston jadid merosi antologiyasi tarkibida yangi sahifa ochadi.

Bir so‘z bilan aytganda “Izhor ul-haq” jurnali XX asrning boshlaridagi siyosiy bo‘hronlar davrida xalqni ma’rifatli qilish, ilmni imon bilan birlashtirish, vatanparvarlik, millat taqdiriga va kelajagiga dahldorlik masalasini ko‘tarib chiqqan yagona nashr sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

“Izhor ul-haq” jurnali o‘z sahifalarida shariatni ijtimoiy ong bilan, dinni millat, millatni esa insoniyat g‘oyasi bilan bog‘lagan. Uning har bir maqolasi — ilmiy, axloqiy va vatanparvarlik ruhida bo‘lib, bugungi tarixshunoslik, ma’naviyatshunoslik va pedagogika fanlari uchun manba hisoblanadi.

Rossiya imperiyasi inqiroz holatiga tushgan, fevral va oktyabr inqiloblari natijasida mamlakatda mafkuraviy bo‘linishlar, iqtisodiy tanglik, ocharchilik kuchaygan edi. Shu murakkab davrda Turkiston ziyolilari — jadidlar xalqni jaholatdan, qoloqlikdan va mustamlaka zulmidan qutqarishning yagona yo‘lini ma’rifat, ilm va axloqiy islohotda deb bildilar.

1918-yilda tashkil etilgan “Fuqaho jamiyati” ana shu maqsadning diniy-huquqiy ifodasi bo‘ldi. Uning nashri — “Izhor ul-haq” (“Haqiqatni oshkor etish”) jurnali millatni ma’naviy uyg‘otish, shariatni adolat bilan uyg‘unlashtirish, jaholat va ixtilofga qarshi kurashish vositasi bo‘ldi.

Bu nashr diniy-ma’rifiy go‘yalarni targ‘ib qilsa-da, mohiyatan millatni uyg‘otish, dahldorlik, e’tiqod, ilm, adolat va vijdon masalalari xalq taqdiri bilan bevosita bog‘lab yoritildi.

“Izhor ul-Haq” jurnali o‘z davri uchun nafaqat mazmunan, balki badiiy-estetik jihatdan ham ilg‘or edi. Nasx va nasta’liq yozuvlari uyg‘unligi, arabesk naqshlar, islomiy geometrik bezaklar, surma bilan chizilgan tughralar — bularning barchasi milliy didning o‘ziga hos ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. Bu esa XX asrning boshlarida mavjud bo‘lgan milliy yozuv tarixini va o‘ziga xosligini o‘rganishda muhim manbalardan biri bo‘lishi mumkin.

“Izhor ul-haq” — bu bir vaqtning o‘zida diniy jurnal va ma’rifiy-milliy uyg‘onish dasturidir.

Mualliflarning da’vati shunday yakun topadi: “Ilm – nur, amal – uning mevasi, adolat – hayot tartibi, taqvo – insonni saodatga eltuvchi yo‘l.”



“Izhor ul-haq” jurnali Turkiston jadid matbuoti ichida ilmiy-ma’naviy uyg‘onish modelining diniy yo‘nalishi sifatida tadqiq etish mumkin.

“Izhor ul-haq” jaridasiga Turkiston jadidchilik tarixining “ruhiy o‘zlik” aksini beruvchi manbasi va islomiy modernizm va milliy uyg‘onish falsafasining sarchashmasi sifatida qadrlash lozim. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, “Izhor ul-haq” nashrlarini jadid matbuotining ilmiy-ma’rifiy merosi sifatida tan olish zarurati yuzaga keldi.